

RAQAMLI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH**G.J. Abilova****DSc, professor NDTU****M.E. Narimbetov****Tayanch doktorant, NDPI****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17523600>**

Annotatsiya: Raqamli ta'lim zamon talabi ekanligi hamda ushbu talabni bajarish uchun o'qituvchilar hamda talabalarning zamonaviy bilimlarini, raqamli platformalardan foydalanish savodxonligining muntazam ravishda rivojlantirish zarurligi hamda o'quv dasturlarining zamonaviylashishi orqali ta'limni yuqori bosqichlarga olib chiqish haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, raqamli platformalar, raqamli kutubxonalar, raqamli savodxonlik, kompyuter texnologiyalari.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida raqamli ta'limga jiddiy etibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalar vazirligi bu borada ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda hamda ta'limda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bo'yicha foal ishlarni amalga oshirmoqda. Raqamli ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida e-platformalar raqamli kutubxonalar hamda onlayn masofaviy darslar yo'lga qoyilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha bir qator kamkorliklar va konferenciya amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, Toshkent shahrida 2025 yil sentyabr oyida "ICT week Uzbekistan" konferenciya tashkil etilib unda asosan ta'lim sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar hamda su'niy intellektidan foydalanish bo'yicha mavzular keng muhokama qilindi. 21-asrda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish tanlov emas balki zarurlik sifatida baxolanadi (4).

"ICT week Uzbekistan" loyihasi asosan ta'limni rivojlantirish uchun, g'oyadan natijagacha usulida su'niy intellektidan ta'limni rivojlantirishda foydalanish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu natijaga erishish uchun akt sohasi hamda ta'lim sohasini birlashtirish ko'zda tutiladi. Ushbu maqsadda universitetlarda raqamli ta'lim markazlarini tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Raqamli ta'limni rivojlantirish uchun birqator ustvor vazifalar mavjud bo'lib, ular haqida quyda batafsil malumotlar berilgan;

- Raqamli ta'limni rivojlantirish uchun yetarli infratuzulma lozim hisoblanadi. Masalan, ta'lim muassasalarida internet hamda kompyuter texnologiyalari bo'yicha muammolarni bartaraf etish zarur. Sababi internet qurilmalari hamda server infratuzilmasi tufayli o'qituvchilar darslarni sifatli tarzda raqamli usulda talabalarga yetkazishlari mumkin bo'ladi. Ushbu natijalarga erishish uchun, ta'lim muassasalari hamda kutubxona markazlari yuqori tezlikli internet serverlarini o'rnatishlari zarur boladi. Resurslardan offline foydalanish imkoniyatlarini yaratish zarur boladi. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqda hamda raqamli platforma hamda qurilmalardan foydalanish keng rivojlanmoqda (2).

- O'qituvchilar hamda talabalarning zamonaviy raqamli qurilmalardan foydalanish hamda ularni to'g'ri yo'lida tizimli va natijali foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. O'qituvchi raqamli metodlardan to'g'ri va samarali foydalanishini taminlash zarur. Buning uchun o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish uchun muntazam ravishda malaka oshirish imkoniyatini yaratish zarur. Professional jamolar bilan birga ishlash hamda keng resurslarga ega bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lishlari zarur. Sifatli ta'limni tashkil etish raqamli infratuzilmani hamda raqamli savodxonlikka ega ta'lim oluvchilarni o'z ichiga oladi (1).

- Rivojlanish darajasi mamlakat bo'ylab teng bo'lishi uchun barcha hududlarda ayniqsa chekka hududlarda ham elektron tizimga kirish, internetdan foydalanish sharoitlari mavjud bo'lishi zarur.

- Belgilangan loyihalar hamda rejalar natijalari, o'quv jarayonining samaradorligi hamda raqamli platformalardan foydalanish koeffisienti muntazam ravishda kuzatilishi zarur. Interaktiv hamda adaptiv o'quv usullaridan foydalanish hamda jarayonni talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish zarur hisoblanadi. Ta'lim sohasida su'niy intellektdan foydalanish orqali har bir talabaga mos shaxsiylashtirilgan ta'limni hamda rejani amalga oshirish imkoniyati yaratiladi (3).

Ushbu zarur ishlar bosqichma bosqich natijali usulda amalga oshirib kelinmoqda. Bu sohaning rivojlanishi keng imkoniyatlarga hamda bilimga ega yosh avlodning shakillanishiga poydevor sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Raqamli ta'limning bugungi kundagi asosiy vazifasi insonni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Respublikamizda ushbu jarayonning rivojlanishi ta'lim tizimini global standartlarga moslash hamda kelajak avlodni tez rivojlanayotgan raqamli muhitga tayyorlash bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A. Perez et al. Title BMC public health, vol. 5. No 1. Pp. 1-8, 2017.
2. F. Craveiro, J.P. Duarte, H. Bartolo, and P.J. Bartolo, "Additive manufacturing as an enabling technology for digital construction: A perspective on Construction 4.0", 2019, <https://doi.org/10/1016/j.aucton.2019.03.011>
3. Luo, Q.Z (2023). The influence of AI-powered adaptive learning platforms on student performance in chinese classrooms. J. Educ. 6, 1-12. Doi: 10.53819/81018102t4181
4. Sahin, F., Dogan, E., Okur, M. R., and Sahin, Y. L. (2022). Emotional outcomes of e-learning adoption during compulsory online education. Educ.Inf. Technol. 27,7827-7849. Doi: 10.1007/s10639-022-10930-y.